

MUSIQA

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
1-sinfi uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

1



TOSHKENT
2021



UO'K 78(075)
KBK 74.268.53
85.3ya7
M 90

Mualliflar:

Nadim Norxo'jayev, Gulnora Ganiyeva

Taqrizchilar:

- Sh. Yormatov** – O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori.
- G. Mansurova** – R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi xor dirijyorligi bo'limi boshlig'i.
- B. Ashurov** – O'zbekiston davlat konservatoriyasining ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, san'at-shunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
- B. Izzatullayeva** – Toshkent viloyati Toshkent tumanidagi 29-maktabning musiqa madaniyati fani o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR:



– ota-onangiz, aka-opangiz yordamida o'rganing



– tinglaymiz



– kuylaymiz



– musiqa savodi



– mashq daftaringizda bajaring



– musiqa ijodkorligi



– dars yakuni

Mashq daftari uchun:



– Nuqtalarni birlashtirib, shakl va nota elementlarini yozishni o'rganing.



– Shakllarni nuqtalar bo'yicha chizing va ularni bo'yang.



– Mustahkamlash uchun topshiriq.

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi
mablag'lari hisobidan chop etildi.*

*Original maket va dizayn konsepsiyasi
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.*

ISBN 978-9943-7114-0-2

© Respublika ta'lim markazi, 2021



I BOB. BIZ YOQTIRGAN KUY VA QO'SHIQLAR



AZIZ BOLAJONLAR!

Musiqaning sehrii dunyosiga qo'yg'an ilk qadamingiz muborak bo'lsin! Bu sayohatda sizga ustozlaringiz eng yaqin ko'makchi bo'lishadi. Balki siz san'atkor bo'lmassiz, lekin musiqa olami bilan tanishuvingiz hayotingizni yanada qiziqarli qilishga yordam beradi.

Qo'lingizdagi darslik orqali musiqadan ilk saboqlarni olasiz.

Musiqa doimiy hamrohingiz bo'lsin!





1-dars



QO'SHIQ AYTISH QOIDALARI

Qo'shiqni to'g'ri ijro etish uchun avval uni diqqat bilan tinglab olish lozim.

Qo'shiqni qomatni rostlagan holda tik turib yoki o'tirib aytish kerak.

Kuylashdan oldin shoshilmasdan nafas oling.

Yelkangizni ko'tarmang.

So'z o'rtasida nafas olmang.

Qo'shiqdagi so'zlar aniq eshinishi uchun unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish kerak.

Kuylaganda ovozingiz yengil va chiroyli eshiting. Tovushlarni cho'zib ayting.

Qo'shiqni ifodali, tinglovchilarga yoqimli qilib aytish kerak.

Qo'shiqni o'qituvchining qo'l harakatlariga qarab aytishga o'rganing.

A – u deganda tovush pastdan yuqoriga chiqadi.


A

U

O

I

YE




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI



A. Oripov she'ri


M. Burhonov musiqasi



TOVUSHLAR. SHOVQINLI VA MUSIQIY TOVUSHLAR



Atrofimizda turli xil tovushlar uchraydi. Bular: shovqinli va musiqiy tovushlardir. Shovqinli tovushlarga jonivorlarning ovozi, yomg'irning shitirlashi, shamolning guvullashi kabi tovushlar misol bo'ladi.






Shuningdek, jismlar-ning ishqalanishi natijasida hosil bo'lgan tovushlar ham "shovqinli tovushlar" deyiladi.



A musical staff with six pink candle-like notes. To the right of the staff is a small illustration of a boy in a blue suit holding a sheet of music.




Qo'shiq kuylaganda va musiqa cholg'ularini chalganda yangraydigan tovushlar "musiqiy tovushlar" deyiladi.





ANDIJON POLKASI

Xalq kuyi
N. Norxo'jayev qayta ishlagan



VATANJONIM – VATANIM

P. Mo'min she'ri


D. Omonullayeva musiqasi



Vatanjonim – Vatanim!
Ko'zim quvnab ko'rganim.
Istiqloldan kulganim,
O'zbekiston – gulshanim!

Bahra olib bag'ringdan,
Ulg'ayaman mehringdan.
Vatanjonim – Vatanim!
O'zbekiston – gulshanim!

Sen o'xshaysan onamga,
Maqtay butun olamga.
Vatanjonim – Vatanim!
O'zbekiston – gulshanim!



Musiqiy va shovqinli tovushlarni aniqlang.






4-dars

NOTA YO‘LI HAQIDA TUSHUNCHA



Musiqa tovushlari notalar bilan yoziladi. Notalar yoziladigan beshta chiziq “NOTA YO‘LI” deyiladi.




ANJIR

P. Mo‘min she‘ri
D. Omonullayeva musiqasi



Anjir qiziqdir o‘zi,
Lekin bittadir ko‘zi.
Aytaqolay oldindan,
Rangi qolmas oltindan.

Pishsa o‘zi-o‘zidan,
Asal tomar ko‘zidan.
Mazza qilamiz axir,
Kuzda yeganda anjir.

Ayting-chi, anjirlar qaysi chiziqda joylashgan?



RAQS
N. Norxo'jayev musiqasi



?! Mashq daftarining 11-betidagi topshiriqni bajaring.



5–6-darslar

BIZ YOQTIRGAN KUYLAR





Kuy bu tovushlardan tuzilgan ohangdir. Musiqaning asosi kuy bo'lib, u o'zining jozibasini bilan bizni jalb qiladi.



DILXIROJ

O'zbek xalq kuyi






KUZ

N. Ro'zimuhamedov she'ri

S. Abramova musiqasi

Kelib yetdi javhar kuz,
 Sandiq ochdi gavhar kuz.
 Bog'larning saxovati,
 Sochildi noz-ne'mati. } 2 marta

Hil-hil pishdi nok, gilos,
 Ochildi paxtamiz soz.
 Ochildi paxtamiz soz,
 Paxtamiz, jon paxtamiz. } 2 marta





7-8-darslar


BIZ YOQTIRGAN QO'SHIQLAR



Kuyga solingan she'r "qo'shiq" deyiladi.



OLMACHA ANOR
O'zbek xalq kuyi





Qo'shiq aytganda so'zlarning aniq va tushunarli bo'lishiga e'tibor bering.



OLMA

P. Mo'min she'ri

D. Omonullayeva musiqasi

Olmani qarang, olmani qarang,
Yuzlari tarang.
Shoxda qaltirar, shoxda qaltirar,
Rangi yaltirar.

Ketmas uzilib, ketmas uzilib,
Turar tizilib.

Kim olma yesa, kim olma yesa,
Maza-yu maza!





9-dars

MUSIQALI O‘YINLAR



Qo‘shiq aytib o‘ynaladigan o‘yinlarga “musiqali o‘yinlar” deyiladi.



OQ TERAQMI, KO‘K TERAQ?

X. Qayumov she‘ri

A. Mansurov musiqasi

Oq terakmi, ko‘k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
O‘qishi, ishi a‘lo,
G‘ayratli, chaqqon, dono,
Kattalarning dastyori,
Kichiklarning sardori,
Odob-axloqda o‘rnak,
Quvnoq bolalar kerak.






QUYONIM

O'zbek xalq bolalar o'yini

Quyoningim, quyoningim, ne bo'ldi,
Kasalga o'xshab o'tiribsan?
Tur o'rningdan, o'ynab ber,
Xohlaganingni tanlab ber.
Bitta o'ynab ber,
Bitta o'ynab ber.





II BOB. MUSIQA OLAMIGA SAYOHAT






1-dars

SKRIPKA KALITI



Skripka kalitining aylana qismi nota yo'lining ikkinchi chizig'ini qamrab oladi. Ikkinchi chiziqda **sol** tovushi yoziladi. Shuning uchun bu kalit "**sol kaliti**" deb ham ataladi.

Skripka kalitini chiroyli yozishga o'rganing.



G'AROYIB KALIT

Har bir uyning eshigi
Kalit bilan ochilar.
Notalarning ham doim
Kaliti bor muloyim.
Sol notasin quchoqlab
Sol kaliti joylashgan.
Yangroq kuyga guloyim,
Bosh bo'ladi u doim.



Mashq daftarining 20-betidagi topshiriqni bajaring.






YURISH MARSHI

F. Nazarov musiqasi

Tinglaymiz, musiqaga mos qadam tashlab yurishni o'rganamiz.






BIR, IKKI, UCH...

R. Tolib she'ri
N. Norxo'jayev musiqasi

Shaxdam, shaxdam tashlang qadam,
Bir, ikki, uch... bir, ikki, uch...
Kuchga to'ling, sog'lom bo'ling, } 2 marta
Bir, ikki, uch... bir, ikki, uch...




NOTALARNING NOMLARI












ZINA

P. Mo'min she'ri
D. Omonullayeva musiqasi

Yuqoriga olib chiqar asta-asta,
Qadam qo'ysang, tushiradi yana pastga.
Qani, bir bor o'zingni sina, udir nima?
Qani, bir bor o'zingni sina, udir zina!







SALOM BERGAN BOLALAR

P. Mo'min she'ri
N. Norxo'jayev musiqasi


Salom bergan bolaning
O'zi odobli,
Kulib turgan yuzlari
Go'yo oftobli.

N a q a r o t :

Salom berish bu –
A'lo alomat.
Salom berganlar,
Bo'ling salomat.

Salom bergan bolaning
Darsi doim "besh",
Maktab, uyda, ko'chada
Yaxshilarga esh.

N a q a r o t.





**Qo'shiq so'z va ohanglardan iborat.
So'z harflar yordamida, ohang esa
notalar bilan yoziladi.**






4-5-darslar


BUTUN NOTA



DO



RE






PIANINO

M. Zaynitdinov she'ri
J. Najmiddinov musiqasi

Do, re, mi, fa, sol, lya, si,
Maktab pianinosi.
Klavishi oq-qora,
Havasing kelar, qara.

Bir, ikki, uch, o'ng oyoq,
Ohangga soling quloq.
Yangroq kuyga jo'r bo'lib,
Qo'shiq aytamiz quvnoq.





ALIFBO BAYRAMI


P. Mo'min she'ri
D. Omonullayeva musiqasi

Alifbodan harflarni
Biz o'rgandik oz-ozdan.
Minnatdormiz o'rgatuvchi
Muallimdan – ustozdan.

N a q a r o t :
Tilimizni sayratadi
Alifbomiz bayrami.
Dilimizni yayratadi
Bayramlarning xurrami.

Har bir harf daftarlarda
Gijinglaydi toy bo'lib.
Yozganimiz ko'rinadi
Yulduz bo'lib, oy bo'lib.

N a q a r o t :





Oldimizga saf tortishdi
Askarlarday harflar.
Barchasiga qo'shiqlarda
Berib o'tdik ta'riflar.

Naqarot.



6-7-darslar



MI



QARI NAVO

O'zbek xalq kuyi
N. Norxo'jayev qayta ishlagan



ARCHA BAYRAM



P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

Hammani ham etar xurram
Barcha bayram, barcha bayram.
Rosa, rosa etar xurram
Archa bayram, archa bayram.


Naqarot:

Bo'lsa hamki qancha bayram,
Eng yaxshisi – archa bayram.


O'rmonzordan qadam tashlab,
Yangi yilni kelar boshlab.
Archajonning qish faslida
Kelganligi soz aslida.

Naqarot:

Archamizning yaxshiligi –
To'rt faslda yashilligi.
Shoxlarida yulduzlari
Yonar hatto kunduzlari.



Naqarot.



MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR

1. A-u tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling.



2. qanday tovush chiqaradi?




3. qanday tovush chiqaradi?




4. qanday tovush chiqaradi?

5. "Andijon polka" kuyi ritmini ijro eting.



6. "Olmacha anor" kuyi ritmini ijro eting.



7. She'rlarni yod oling.

Uyga kirdi notalar,
 Kech qolibdi nota DO.
 Chiziqlarda joy yo'qdir,
 DOga maslahat shudir:
 Tezroq joylashgin sen, hoy,
 Qo'shimcha chiziqda joy.


* * *

RE qo'rqadi balanddan,
 Juda nimjondir o'zi.
 Shuning uchun doimo
 Chiziq ostida ko'zi.

* * *

Birinchi chiziqda
 Mitti MI joylashadi.
 Quvnoq qo'shiqlar kuylab,
 Kuyga chiroy beradi.

8. RE notasini toping.




III BOB. MUSIQA SAVODIGA SAYOHAT



1-2-darslar



Bir bilan ikkining u
Orasida joylashgan.
FA deb nomlab faxr-la,
Yurar doim mehr-la.




Ikkinchi chiziqda u
Yastanib yotib olgan.
Kalitga og'a bo'lib,
Kuyga mehrini solgan.





NORIM-NORIM

O'zbek xalq kuyi
N. Norxo'jayev qayta ishlagan





BIRINCHI QOR

R. Tolib she'ri
N. Norxo'jayev musiqasi

Ey qor, shodsan buncha ham,
Axir erib ketasan.
Voy, voy, voy, voy.

Men sizlarga bir olam
Quvonch berib ketaman.
Hoy, hoy, hoy, hoy.


● ● | ● ● ● | ● ●

○ ○ ○ ○ ○ ○




Ikki bilan uchinchi
Chiziqning orasida
LYA notasi joylashgan,
Barcha kuyga moslashgan.

LYA



SI notasi uchinchi
Chiziqdadir, sen angla.
Og'alarin ichida
Eng sof ovozda kuylar.

SI






JO‘JALAR

P. Mo‘min she’ri

D. Omonullayeva musiqasi

Jo‘jalar juda qiziq,
Oyoqlari qiltiriq.
Chiqishibdi tuxumdan –
Oppoq kichkina xumdan.

“Chip-chip” deya so‘zlashar,
Oyisini izlashar.
Tovuq so‘zin uqishdi,
Yerdan uvoq cho‘qishdi.







LAVLAGI

P. Mo'min she'ri
D. Omonullayeva musiqasi

Lavlagi-yu lavlagi,
Yerni asta kavlagin.
Mo'l bo'libdi hosili,
A'lo ekan qizili.
Lolaga o'xshar,
Qip-qizil rangi,
Xuddi bo'yalganday yap-yangi.





NOTALARNING NOMLARI VA ULARNING KETMA-KETLIGI





Notalarning nomlarini chapdan o'ngga va o'ngdan chapga aytishni o'rganing.






CHITTIGUL

Bolalar xalq o'yin-qo'shig'i
G'afur G'ulom she'ri

Toshxon qiz o'zi-o'zi,
Boshida yo'rmado'zi.
Hayu, chittigul.




DILOROMNING QO'SHIG'I



P. Mo'min she'ri
D. Omonullayeva musiqasi

Quvnoq, xushovoz
Jaji Dilorom.
Qo'shig'i dilga
Baxsh etar orom:
"Ayam va dadam
Bo'lsinlar bardam,
Dunyo turguncha
Tursinlar har dam".

Kuylar Dilorom
Xushchaqchaq, bardam:
"Dunyoda ozod
Bo'lsin har odam.
Qalb ovozimni
Tinglasin olam,
Tinglasin dadam,
Tinglasin olam".




7-8-darslar

CHIZIQLAR USTIDA VA ORASIDA JOYLASHGAN NOTALAR



Chiziqdar ustida joylashgan notalar



A musical staff with a treble clef. Four notes are placed on the lines of the staff, each enclosed in a pink oval. From bottom to top, the notes are labeled: MI (on the first line), SOL (on the second line), SI (on the third line), and RE (on the fourth line).

Chiziqdar orasida joylashgan notalar





A musical staff with a treble clef. Four notes are placed in the spaces between the lines of the staff, each enclosed in a pink oval. From bottom to top, the notes are labeled: RE (in the first space), FA (in the second space), LYA (in the third space), and DO (in the fourth space).

Qo'shimcha chiziqlarda joylashgan notalar

A musical staff with a treble clef. Four notes are placed on lines above and below the staff, each enclosed in a pink oval. From bottom to top, the notes are labeled: DO (on the line below the staff), SI (on the line above the staff), LYA (on the line above the staff), and SI (on the line below the staff).

DO'LONCHA

Xalq kuyi





NEVARALAR QO'SHIG'I

S. Barnoyev she'ri
N. Norxo'jayev musiqasi

Bog'im bor, gulzorim bor,
Bosh bog'bonim – bobomlar.
Shirin so'zli, beozor,
Mehribonim – momomlar.

N a q a r o t :

Nevara, evara, chevaramiz,
Bizlar uyning chevarimiz.

Ostonamiz muqaddas,
Ahil ota-onamlar.
Oftob nuri tugamas,
Havas qilar odamlar.

N a q a r o t :


Niyatimiz pok, nurli,
Shundan bizlar g'ururli.
Bobo, momolar bilan
Yashash qanday sururli!

N a q a r o t .










YARIM NOTA



DO



RE





NEAPOLITANCHA QO'SHIQ

P. Chaykovskiy musiqasi



The musical notation section includes:

- Two staves with rhythmic symbols: the first staff has a white circle, followed by six black circles, and a white circle; the second staff has a black circle, followed by six black circles, a white circle, and a black circle.
- A treble clef staff with six pink notes.
- Icons: a pair of hands, a drum, a bell, and a conductor.

IV BOB. XUSHNAVO MILLIY CHOLG'ULARIMIZ

1-2-darslar

TORLI CHOLG'ULAR

DUTOR BAYOTI





Xalq kuyi
N. Norxo'jayev qayta ishlagan



DUTOR


?! Bog'da bulbul sayraydi,
Egalari so'zlaydi.





RUBOB

?! O'zbek xalqining sozi,
Yoqimlidir ovozi.
Kuy-qo'shiqqa jo'r bo'lib,
Elni qiladi rozi.







BUG'DOY


P. Mo'min she'ri
D. Omonullayeva musiqasi

Ekkan edim,
Ko'kat bo'ldi, don bo'ldi.
Pishgandan so'ng,
Oppoqqina non bo'ldi.

Elim boy, elim boy,
Nimaga boy?
Elim boy, elim boy,
Ekar bug'doy!




DAMLI CHOLG'ULAR



KARNAY




Uzun bo'yli darozman,
G'at-g'ata-g'u, g'at-g'ata-g'u.
Ovozimni eshitgan
Shodlandi-ku, shodlandi-ku!



SURNAY



?! Puflab chalishar meni,
Yetti teshik so'ylaydi.
O'zbekning to'ylarida
U baralla kuylaydi.





SEHRLI DUNYO

H. Ahmedova she'ri
X. Hasanova musiqasi

Dilda orzular, kuylaymiz jo'shib.
Quvonch, shodlikni kuylarga qo'shib.
Bolalik guldir bu go'zal chamanda.
Yashaymiz yayrab, eng baxtli Vatanda.


N a q a r o t :
Kuylar olam sochib ziyo.
Chorlar har dam bu sehrlı dunyo.

Porlasa nurlar, ochilar gullar,
Yaxshi tilakka to'ladi dillar.
Kuyga solamiz, bu zamin, samoni,
Qo'shiqlar bilan bezab dunyoni.

N a q a r o t .




ZARBLI CHOLG'ULAR



DOIRA


?! Lo'ppi barkashday o'zi,
Ziraklari shaqillar.
Bum-baka-bum, bum-baka-bum,
Bizni raqsga chorlar.





NOG'ORA



**?! Tomda turib gilam qoqdim,
Changi jahonga ketdi.**





XORAZM LAZGISI

O'zbek xalq kuyi
N. Norxo'jayev qayta ishlagan



BASTAKOR, SHOIR, SOZANDA VA XONANDA

Bastakor – kuy bastalaydi.

Shoir – she'r yozadi.

Sozanda – soz chaladi.


Xonanda – qo'shiq kuylaydi.





POLKA

M. Glinka musiqasi





KAPALAK

P. Mo'min she'ri
D. Omonullayeva musiqasi

Kapalakar uchdilar,
Bu gulzorga tushdilar.
Xo'p o'ynashdi, quvnashdi,
Qushlar rosa quvlashdi.

Kapalakjon, kapalak,
Qayerdasan, ber darak.
Gulga qo'nsa kapalak,
Qushcha topmay jonsarak.




MUSTAHKAMLASH UCHUN TOPSHIRIQLAR




“CHITTIGUL”



“DILXIROJ”




“CHILDIRMA”






O'ZINGIZ TOPING!


DO notasini toping.




MI notasini toping.



RE notasini toping.








LYA notasini toping.







MEVALARNI TENG QISMLARGA BO'LING.




“Polka” kuyi ritmini ijro eting.



To'g'ri yozilgan sol kalitini toping.



DO notasini toping.



MUNDARIJA

I BOB. BIZ YOQTIRGAN KUY VA QO‘SHIQLAR

Qo‘shiq aytish qoidalari	4
O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi.	
A. Oripov she‘ri, M. Burhonov musiqasi	5
Tovushlar. Shovqinli va musiqiy tovushlar	6
“Andijon polkasi”. O‘zbek xalq kuyi	9
“Vatanjonim – vatanim”. P. Mo‘min she‘ri, D. Omonullayeva musiqasi...	10
Nota yo‘li haqida tushuncha	12
“Anjir”. P. Mo‘min she‘ri, D. Omonullayeva musiqasi	12
“Raqs”. N. Norxo‘jayev musiqasi	13
Biz yoqtirgan kuylar	14
“Dilxiroj”. O‘zbek xalq kuyi	14
“Kuz”. N. Ro‘zimuhamedov she‘ri, S. Abramova musiqasi	15
Biz yoqtirilgan qo‘shiqlar	16
“Olmacha anor”. O‘zbek xalq kuyi	16
“Olma”. P. Mo‘min she‘ri, D. Omonullayeva musiqasi.....	17
Musiqali o‘yinlar	18
“Oq terakmi, ko‘k terak?” X. Qayumov she‘ri, A. Mansurov musiqasi	18
“Quyoni”. O‘zbek xalq bolalar o‘yini.....	19

II BOB. MUSIQA OLAMIGA SAYOHAT

Skripka kaliti	20
“Yurish marshi”. F. Nazarov musiqasi	22
“Bir, ikki, uch...” R. Tolib she‘ri, N. Norxo‘jayev musiqasi.....	23
Notalarning nomlari	24
“Zina”. P. Mo‘min she‘ri, D. Omonullayeva musiqasi	24
“Salom bergan bolalar”. P. Mo‘min she‘ri, N. Norxo‘jayev musiqasi	26
Do, re notalari	28
“Piano”. M. Zaynitdinova she‘ri, J. Najmiddinov musiqasi	29
“Alifbo bayrami”. P. Mo‘min she‘ri, D. Omonullayeva musiqasi	30

Mi notasi	32
“Qari navo”. <i>O‘zbek xalq kuyi</i>	32
“Archa bayram”. <i>P. Mo‘min she‘ri, N. Norxo‘jayev musiqasi</i>	33
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	34

III BOB. MUSIQA SAVODIGA SAYOHAT

Fa, sol notasi	36
“Norim-norim”. <i>O‘zbek xalq kuyi</i>	37
“Birinci qor”. <i>R. Tolib she‘ri, N. Norxo‘jayev musiqasi</i>	38

Lya, si notasi	39
“Jo‘jalar”. <i>P. Mo‘min she‘ri, D. Omonullayeva musiqasi</i>	40
“Lavlagi”. <i>P. Mo‘min she‘ri, D. Omonullayeva musiqasi</i>	41

Notalarning nomlari va ularning ketma-ketligi	42
“Chittigul”. <i>Bolalar xalq o‘yin-qo‘shig‘i</i>	44
“Diloromning qo‘shig‘i”. <i>P. Mo‘min she‘ri, D. Omonullayeva musiqasi</i>	45

Chiziqlar ustida va orasida joylashgan notalar	46
“Do‘loncha”. <i>O‘zbek xalq kuyi</i>	47
“Nevaralar qo‘shig‘i”. <i>S. Barnoyev she‘ri, N. Norxo‘jayev musiqasi</i>	48

Yarim nota	49
“Neapolitancha qo‘shiq”. <i>P. Chaykovskiy musiqasi</i>	51

IV. BOB. XUSHNAVO MILLIY CHOLG‘ULARIMIZ

Torli cholg‘ular	52
“Dutor bayoti”. <i>O‘zbek xalq kuyi</i>	52
“Bug‘doy”. <i>R. Tolib she‘ri, D. Omonullayeva musiqasi</i>	54

Damli cholg‘ular	55
“Sehrli dunyo”. <i>H. Ahmedova she‘ri, X. Hasanova musiqasi</i>	57

Zarbli cholg‘ular	58
“Xorazm lazgisi”. <i>O‘zbek xalq kuyi, N. Norxo‘jayev qayta ishlagan</i>	60
“Childirma”. <i>P. Mo‘min she‘ri, D. Omonullayeva musiqasi</i>	61

Bastakor, shoir, sozanda va xonanda	62
“Polka”. <i>M. Glinka musiqasi</i>	63
“Kapalak”. <i>P. Mo‘min she‘ri, D. Omonullayeva musiqasi</i>	64
Mustahkamlash uchun topshiriqlar	65

O'quv nashri

Nadim Norxo'jayev, Gulnora Ganiyeva

MUSIQA

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
1-sinfi uchun darslik*

Rassom Umid Sulaymonov

Muharrir Orifjon Madvaliyev

Texnik muharrir Akmal Sulaymonov

Badiiy muharrir Sarvar Farmonov

Musahhah Mohinur Ablahakimova

Dizayner Dilmurod Mulla-Axunov

Sahifalovchi Alimardon Aqilov

Musiqa 1-sinf [Matn]: darslik / N.Norxo'jayev [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 72 b.

ISBN 978-9943-7114-0-2

UO'K 78(075)
KBK 74.268.53
85.3ya7

Bosishga 07.06.2021-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$.
Arial garniturası. Keglı 18 shponlı. Ofset bosma.
Shartlı bosma tabog'i 8,37. Nashriyot-hisob tabog'i 15,12.
Adadı 608 220 nusxa. Buyutma № ____.

"Kolorpak" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Elbek ko'chasi, 8-uy



COLORPACK